TAHRIRIYAT SIYOSATI
qo‘lyozmalarni tayyorlash va taqrizlashda generativ sun'iy intellektdan foydalanish to‘g‘risida

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Siyosat «Jamoat xavfsizligi / Общественная безопасность / Public Safety» ilmiy-amaliy jurnalida (keyingi o‘rinlarda — Jurnal) qo‘lyozmalarni tayyorlash, taqdim etish, taqrizlash va nashr etishda generativ sun'iy intellektdan (keyingi o‘rinlarda — GSI) hamda katta til modellariga asoslangan vositalardan foydalanish tartibini belgilaydi.

1.2. Siyosat mas'uliyatli oshkor etish tamoyiliga asoslanadi va Nashrlar etikasi qo‘mitasi (COPE) tavsiyalariga, shuningdek yetakchi xalqaro nashriyotlar — IEEE, SAGE Publishing, Elsevier, Springer Nature, Wiley, Taylor & Francis amaliyotiga tayanadi.

1.3. Ushbu Siyosatning amal qilishi qo‘lyozma mualliflariga, taqrizchilarga, tahririyat hay'ati a'zolariga va Jurnal tahririyat apparati xodimlariga tatbiq etiladi.

1.4. Siyosat texnologiyalar rivoji va xalqaro nashr amaliyotidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda kamida yiliga bir marta qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

2. Atamalar va ta'riflar

Ushbu Siyosat maqsadlarida quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

Akademik halollik –o‘qish va yozma ishlarni bajarishda (testlar, esselar, loyihalar, bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalar), oraliq va yakuniy nazoratlar, imtihonlarda savollarga javob berishda, tadqiqot olib borishda, o‘z bilimini ifoda etishda, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar hamda talabalar bilan munosabatlarda halollikni ifoda etadigan qadriyatlari va tamoyillarining majmui. Bunda tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ma’lumotlar, ilmiy natijalar, usullar, tartiblar va ilmiy nashrning holati haqqoniy va xolisona ko‘rsatilishi, plagiat (ko‘chirmachilik), mavjud ma’lumotlarni soxtalashtirish (falsifikatsiya) va qalbaki ma’lumotlarni yaratish (fabrikatsiya)ga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Sun’iy intellekt — insonning bilishi va ko‘nikmalariga (shu jumladan mustaqil ravishda o‘rganish va yechim izlashga) taqlid qilish hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalariga yaqin (taqqoslanadigan) natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui.

Generativ sun'iy intellekt (GSI) — foydalanuvchi so‘rovlariga (promtlarga) javoban matnlar, tasvirlar, jadvallar, dasturiy kod parchalari va boshqa obyektlarni avtomatik yaratishga qodir dasturiy tizimlar, jumladan ChatGPT, Claude, Gemini, GigaChat, YandexGPT, DeepSeek, Llama va shunga o‘xshash katta til modellaridir (LLM). Oddiy SI tizimlari ma’lumotlarni tahlil

qilish va saralash bilan cheklansa, GSI texnologiyalari qonunchilikda belgilangan inson aqliy faoliyati natijalariga yaqin bo‘lgan mutlaqo yangi intellektual mahsulotlarni (kontentni) mustaqil yaratish xususiyatiga egadir

Til tahriri uchun SI-yordamchilar — grammatika, imlo, tinish belgilari, uslubni tekshirish va o‘qishni yengillashtirishni ta'minlovchi vositalar (Grammarly, DeepL Write, Microsoft Editor va shunga o‘xshash).

SIdan foydalanish to‘g‘risidagi deklaratsiya — muallif (hammualliflar) qo‘lyozmani tayyorlashda GSIdan foydalanishning xususiyati va hajmini oshkor etadigan majburiy hujjat. Deklaratsiya shakli Jurnalning nashr va publikatsiya etikasi to‘g‘risidagi Nizomga №3-ilova bilan belgilangan.

SIdan foydalanish darajasi — qo‘lyozmani tayyorlashga SI aralashuvining darajasi va xususiyati bo‘lib, ushbu Siyosatning 4-bo‘limiga (L0–L3) muvofiq tasniflanadi.

3. Jurnalda SIdan foydalanish tamoyillari

Jurnal SIni ilmiy ishning foydali vositasi deb e'tirof etgan holda undan foydalanishga mas'uliyatli yondashuvga amal qiladi va quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi:

3.1. Yo‘l qo‘yilishi tamoyili. Qo‘lyozmalarni tayyorlashda SIdan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Jurnal zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga to‘sqinlik qilmaydi va ular bilan mas'uliyatli ishlashni rag‘batlantiradi.

3.2. Mualliflik javobgarligi tamoyili. Muallif (hammualliflar) qo‘lyozmani tayyorlashda qanday vositalar qo‘llanilganidan qat'i nazar uning butun mazmuni uchun to‘liq javobgar bo‘ladi. SI muallif yoki hammuallif sifatida ko‘rsatilishi mumkin emas.

3.3. Shaffoflik tamoyili. GSIdan har qanday muhim foydalanish qo‘lyozmaga ilova qilinadigan deklaratsiya shaklida oshkor etilishi lozim.

3.4. Mazmunli mualliflik tamoyili. Nashrning asosiy ilmiy elementlari (muammoning qo‘yilishi, metodologiya, natijalarni talqin qilish, xulosalar) muallif-insonning intellektual mehnati natijasi bo‘lishi kerak.

3.5. Maxfiylik tamoyili. Nashr etilmagan qo‘lyozmalar va uchinchi shaxslarning himoyalanadigan ma'lumotlarini ommaviy SI-xizmatlarga yuklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.6. Tekshirish tamoyili. Muallif barcha ma'lumotlar, iqtiboslar va faktik da'volar, jumladan SI tomonidan generatsiya qilingan yoki taklif etilganlarining ishonchliligini tekshirishi shart.

4. SIdan foydalanish darajalari va ularni oshkor etish tartibi

4.1. Jurnal SIdan foydalanishning to‘rt darajali tasnifini belgilaydi. Daraja muallif tomonidan qo‘lyozmani taqdim etishda aniqlanadi va deklaratsiyada tasdiqlanadi.

Daraja	Foydalanish xususiyati	Nimani o‘z ichiga oladi	Oshkor etish
L0	**Bazaviy vositalar**	Imlo va grammatikani tekshirish, iqtibos menejerlari (Zotero, Mendeley, EndNote), qidiruv tizimlari.	Talab etilmaydi
L1	**SI til tahriri**	Muallif matnining o‘qilishi va uslubini yaxshilash, tarjima, tinish belgilarini tuzatish, terminologiyani birxillashtirish. Qo‘lyozma mazmuni muallifniki bo‘lib qoladi.	«Minnatdorchilik» bo‘limida tilga olish tavsiya etiladi, lekin majburiy emas
L2	**Mazmuniy qayta ishlash**	Tezislarni shakllantirishda yordam, argumentatsiyani kengaytirish, muallif materiallari asosida ayrim xatboshilar qoralamalarini generatsiya qilish, adabiyotlar sharhini tuzishda yordam, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun dasturiy kod parchalarini generatsiya qilish.	**3-ilova shakli bo‘yicha majburiy deklaratsiya**
L3	**To‘liq yoki asosan generatsiya**	Qo‘lyozmaning asosiy bo‘limlari (kirish, muhokama, xulosalar) muallif tomonidan muhim qayta ishlanmasdan SI tomonidan generatsiya qilingan. Muallif hissasi kosmetik tahrir bilan cheklanadi.	**Yo‘l qo‘yilmaydi. Nashr etishni rad etish uchun asos hisoblanadi.**

4.2. L2 darajasida deklaratsiya qo‘lyozma bilan bir vaqtda alohida fayl tarzida taqdim etiladi va shu bilan birga maqolaning nashr etiladigan versiyasiga adabiyotlar ro‘yxatidan oldin maxsus bo‘lim sifatida kiritiladi.

4.3. Deklaratsiya quyidagilarni o‘z ichiga olsa, tegishli deb hisoblanadi: vositaning nomi va uning versiyasi (yoki murojaat sanasi), foydalanish maqsadlarining tavsifi, SI qo‘llanilgan qo‘lyozma bo‘limlari ro‘yxati, muallif tomonidan natijalar tekshirilganligi va mazmun uchun javobgarlik qabul qilinganligining tasdig‘i.

5. Mualliflarning vazifalari

Muallif (hammualliflar) Jurnalga qo‘lyozma taqdim etar ekan, quyidagi majburiyatlarni zimmasiga oladi:

5.1. Qo‘lyozmani taqdim etish shaklida SIdan foydalanish darajasini (L0, L1, L2 yoki L3) ko‘rsatish.

5.2. L2 darajasida nashr va publikatsiya etikasi to‘g‘risidagi Nizomga №3-ilova shakli bo‘yicha deklaratsiyani to‘ldirish va imzolash.

5.3. Qo‘lyozmadagi barcha ma'lumotlar, da'volar, iqtiboslar va bibliografik havolalar, jumladan SI tomonidan taklif etilgan yoki generatsiya qilinganlarining ishonchliligini mustaqil tekshirish.

5.4. Qo‘lyozmaga SI tomonidan generatsiya qilingan tasvirlar, sxemalar, jadvallar yoki boshqa obyektlarni ularning kelib chiqishini aniq ko‘rsatmasdan va foydalanish zaruratini asoslamasdan kiritmaslik.

5.5. SIni qo‘lyozma muallifi yoki hammuallifi sifatida ko‘rsatmaslik va SIni ilmiy axborot manbai sifatida iqtibos keltirmaslik.

5.6. Ommaviy SI-xizmatlarga uchinchi shaxslarning nashr etilmagan ma'lumotlarini, maxfiy axborotni va himoyalanadigan shaxsiy ma'lumotlarni yuklamaslik.

5.7. SIdan tadqiqot metodi sifatida (ma'lumotlarni tahlil qilish, tasniflash, modellashtirish) foydalanishni qo‘lyozmaning «Metodlar» bo‘limida model versiyasi, parametrlari va qo‘llanilgan promptlarni ko‘rsatgan holda oshkor etish.

6. Taqrizchilarning vazifalari

6.1. Taqrizchilar qo‘lyozmani yoki uning ayrim parchalarini ommaviy SI-xizmatlarga yuklashga haqli emaslar. Ushbu talab taqrizlash maxfiyligiga rioya etish zaruratidan kelib chiqadi va Elsevier, Nature, NIH (NOT-OD-23-149) siyosatlariga muvofiqdir.

6.2. Taqrizchilar taqrizni taqdim etishda 6.1-bandga rioya etilganligini tasdiqlaydilar.

6.3. SIdan taqrizni muallif bilan yozishma tiliga tarjima qilish uchun yoki taqrizning o‘zini til jihatidan tahrirlash uchun (qo‘lyozmani SI-xizmatga uzatmasdan) foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

6.4. Taqriz qilinayotgan qo‘lyozmada L3 darajasi belgilari (SI tomonidan to‘liq generatsiya), soxtalashtirilgan iqtiboslar yoki ushbu Siyosatning boshqa buzilishlari aniqlanganda taqrizchi tahririyatni xabardor qiladi.

7. Tahririyatning vazifalari

7.1. Tahririyat qo‘lyozmani taqdim etish shakliga SIdan foydalanish darajasini tanlash to‘g‘risidagi majburiy bandni kiritadi.

7.2. Tahririyat bibliografik havolalarning mavjudligi va aniqligini tanlama tekshiradi (manbalar umumiy sonining kamida 10 foizi).

7.3. Tahririyat SI tomonidan generatsiya qilingan matnni avtomatik aniqlash vositalaridan yordamchi vosita sifatida foydalanishga haqli; qo‘lyozmani rad etish yoki qayta ishlashga qaytarish to‘g‘risidagi qaror faqat bunday vositalar natijasi asosida qabul qilinmaydi. Tahririyat tasdiqlagan metodika bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruv natijasida qo‘lyozmadagi SI tomonidan generatsiya qilingan matn ulushining 35 foizdan oshishi aniqlansa, ushbu holat tahririyatning mazmuniy tekshiruvidan so‘ng qo‘lyozmani qayta ishlashga qaytarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi; bunda qaror detektor natijasi bilan bir qatorda ushbu

Siyosatning 4-bo‘limida nazarda tutilgan tasnif (L0–L3) va muallif deklaratsiyasini hisobga olgan holda qabul qilinadi.

7.4. Muallif deklaratsiyasining ishonchliligida asoslangan shubhalar bo‘lganda tahririyat muallifga aniqlovchi savollar yo‘llashga yoxud og‘zaki suhbat (videosuhbat) taklif etishga haqli.

7.5. Muallifning SIdan foydalanish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi maqola bilan birga nashr etiladi va o‘quvchilar uchun ochiq bo‘ladi.

8. Nashr etishni rad etish asoslari

8.1. Nashr etishni rad etishning so‘zsiz asoslari quyidagilardir:

— SIni qo‘lyozma muallifi yoki hammuallifi sifatida ko‘rsatish;

— L3 darajasi fakti — maqolaning asosiy bo‘limlarini muallif tomonidan muhim qayta ishlanmasdan to‘liq yoki asosan generatsiya qilinganligi aniqlanishi;

— muallif tomonidan qo‘lyozmani tayyorlashda aniqlanmagan, SI tomonidan soxtalashtirilgan bibliografik havolalar (mavjud bo‘lmagan ishlarga yoki buzib ko‘rsatilgan chiqish ma'lumotlari bilan) mavjudligi;

— SI tomonidan generatsiya qilingan tasvirlar, sxemalar yoki ma'lumotlardan ularning kelib chiqishini aniq ko‘rsatmasdan foydalanish;

— tahririyatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘roviga SIdan muhim foydalanish faktini yashirish;

— taqrizchi tomonidan nashr etilmagan qo‘lyozmani ommaviy SI-xizmatga yuklash fakti aniqlanishi.

8.2. Qo‘lyozmani qayta ishlashga qaytarish asoslari quyidagilardir:

— hamrohlovchi deklaratsiyasiz L2 darajasi — qo‘lyozma oshkor etish talabi bilan qaytariladi;

— 4.3-band talablariga muvofiq bo‘lmagan to‘liqsiz yoki rasmiy deklaratsiya;

— oshkor etish rasman bajarilgan holda mazmuniy noaniqliklar va iqtiboslarning zaif tekshirilishi;

— ushbu Siyosatning 7.3-bandida nazarda tutilgan tartibda aniqlangan SI tomonidan generatsiya qilingan matn ulushining 35 foizdan oshishi — qo‘lyozma muallifga mazmuniy qayta ishlash hamda 3-ilova shakli bo‘yicha deklaratsiyani taqdim etish yoki aniqlashtirish talabi bilan qaytariladi.

8.3. Nashrdan keyin buzilishlar aniqlanganda COPE Retraction Guidelines tavsiyalariga muvofiq tuzatish (corrigendum) yoki retraktsiya protsedurasi qo‘llaniladi.

8.4. Ushbu Siyosatning tizimli buzilishlari yoki muallif tomonidan soxtalashtirish faktlari to‘g‘risida tahririyat muallif bilan affiliatsiyalangan muassasani xabardor qilishga haqli.

8.5. Ushbu Siyosatning 8.2-bandiga muvofiq qaytarilgan qo‘lyozma muallif tomonidan mazmuniy qayta ishlanmasdan takroran taqdim etilsa,

qo‘lyozma nashr etishdan rad etiladi, muallif (hammualliflar) esa tahririyat hay'atining qarori bilan Jurnalga qo‘lyozma taqdim etish huquqi cheklangan mualliflar ro‘yxatiga («qora ro‘yxat») ikki yil muddatga kiritiladi. Muallif qabul qilingan qaror va uning asoslari to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilinadi hamda tahririyat hay'atiga tushuntirish taqdim etish huquqiga ega. Cheklov muddati tugagach, muallifning qo‘lyozmalari umumiy asoslarda qabul qilinadi.

9. Yakuniy qoidalar

9.1. Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining buyrug‘i bilan tasdiqlangan sanadan kuchga kiradi.

9.2. Siyosat va deklaratsiya shakli Jurnalning rasmiy saytida «Mualliflar uchun ma'lumot» bo‘limida nashr etiladi.

9.3. Siyosatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar tahririyat hay'atining qarori bilan kiritiladi va Jurnal sayti orqali mualliflar e'tiboriga yetkaziladi.

9.4. Ushbu Siyosatning qo‘llanilishi Jurnalni rasmiylashtirish qoidalari va ilmiy nashrning umumiy etika normalari bilan belgilangan qo‘lyozmalarga doir boshqa talablarni bekor qilmaydi.